2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 159.9:316.356.2

Xo‘jamova Shohida Alpomish qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

AYOLLARNING OILAVIY MUNOSABATLARDAN QONIQISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: TUSHUNCHA VA NAZARIY TAHLIL

Annotatsiya. Maqolada ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini belgilovchi psixologik determinantlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oilaviy qoniqish real oilaviy munosabatlarning ayol ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari asosida kognitiv baholanishi bilan bog‘liq subyektiv psixologik holat sifatida talqin etiladi. Deterministik, tizimli va kognitiv yondashuvlar asosida ijtimoiy-madaniy muhit, real oilaviy munosabatlar, ehtiyoj-kutuv-qadriyatlar hamda kognitiv baholashning o‘zaro bog‘liqligi asoslanadi. Natijada ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini tushuntiruvchi interaktiv model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy qoniqish, psixologik determinantlar, ayollar, oilaviy munosabatlar, ehtiyoj, kutuv, qadriyat, kognitiv baholash, emotsional yaqinlik, ijtimoiy-madaniy muhit.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ УДОВЛЕТВОРЁННОСТИ ЖЕНЩИН СЕМЕЙНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ: ПОНЯТИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье теоретически анализируются психологические детерминанты удовлетворённости женщин семейными отношениями. Семейная удовлетворённость рассматривается как субъективное психологическое состояние, связанное с когнитивной оценкой реальных семейных отношений на основе потребностей, ожиданий и ценностей женщины. На основе детерминистского, системного и когнитивного подходов обоснована взаимосвязь социокультурной среды, реальных семейных отношений, потребностей, ожиданий, ценностей и когнитивной оценки. В результате предложена интерактивная модель удовлетворённости женщин семейными отношениями.

Ключевые слова: семейная удовлетворённость, психологические детерминанты, женщины, семейные отношения, потребности, ожидания, ценности, когнитивная оценка, эмоциональная близость, социокультурная среда.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF WOMEN'S SATISFACTION WITH FAMILY RELATIONSHIPS: CONCEPT AND THEORETICAL ANALYSIS

Abstract. This article theoretically examines the psychological determinants of women's satisfaction with family relationships. Family satisfaction is viewed as a subjective psychological state associated with the cognitive appraisal of actual family relationships based on a woman's needs, expectations, and values. Using deterministic, systemic, and cognitive approaches, the study substantiates the relationship between the sociocultural environment, actual family relationships, needs, expectations, values, and cognitive appraisal. As a result, an interactive model of women's satisfaction with family relationships is proposed.

Keywords: family satisfaction, psychological determinants, women, family relationships, needs, expectations, values, cognitive appraisal, emotional intimacy,

Kirish. Oila inson hayotidagi muhim ijtimoiy-psixologik muhitlardan biri bo‘lib, unda shaxsning mehr, hurmat, ishonch, emotsional yaqinlik, xavfsizlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlari namoyon bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarning mazmuni va sifati nafaqat oila a'zolari o‘rtasidagi obyektiv munosabatlarga, balki ushbu munosabatlarning har bir shaxs tomonidan qanday idrok etilishi va baholanishiga ham bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, oilaning barqarorligi va psixologik farovonligini o‘rganishda oila a'zolarining, xususan, ayolning oilaviy munosabatlarni qanday qabul qilishi va ulardan qanchalik qoniqishi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 6-mart kuni 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida xotin-qizlarni oila va jamiyat tayanchi sifatida e'tirof etib, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, farovon va munosib hayot kechirishi uchun zarur imkoniyatlarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Davlatimiz rahbari "Inson baxti oiladan boshlanadi, oila esa ayol bilan mustahkam", deya ta'kidlab, ayollarning hayotdan rozi, baxtli-saodatli yashashi uchun sharoit yaratish muhimligini qayd etdi [1]. Mazkur yondashuv ayolning oiladagi o‘rni, uning psixologik farovonligi va oilaviy munosabatlardan qoniqish holatini ilmiy jihatdan o‘rganishning dolzarbligini yanada oshiradi. Zero, ayolning oiladagi subyektiv farovonligi, o‘zaro munosabatlarni ijobiy baholashi va oilaviy hayotdan qoniqishi nafaqat uning shaxsiy psixologik holatiga, balki oiladagi sog‘lom psixologik muhit va barqaror munosabatlarning shakllanishiga ham ta'sir ko‘rsatadi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida er va xotinning oilada teng huquq va majburiyatlarga egaligi, bolalarni tarbiyalash, oila byudjeti, yashash sharoiti va oilaviy turmushga oid muhim masalalarni birgalikda hal qilishi belgilangan. Shuningdek, er va xotinning mashg‘ulot turi, kasbi va yashash joyini mustaqil tanlash huquqi e'tirof etilgan [2]. Mazkur huquqiy normalar oilaviy

munosabatlarda o‘zaro hurmat, tenglik, sheriklik va shaxsiy tanlov imkoniyatining muhimligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan ayolning fikri, ehtiyojlari, kutuvlari va oiladagi shaxsiy mavqeining e’tiborga olinishi oilaviy munosabatlarning psixologik sifatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, ayolning oilaviy munosabatlardan qoniqishini faqat oilada ijobiy munosabatlarning mavjudligi bilan izohlash yetarli emas. Ayol oilada sevilishi, hurmat qilinishi, qadrlanishi va moddiy yoki ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Biroq mazkur munosabatlar uning shaxsiy ehtiyojlari, oilaviy hayotga oid kutuvlari va qadriyatlariga yetarli darajada mos kelmasa, u oilaviy munosabatlardan to‘liq qoniqmasligi mumkin. Demak, bir xil obyektiv sharoit yoki munosabatlar turli ayollar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Bu esa oilaviy qoniqishning faqat tashqi sharoitlar bilan emas, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va kognitiv baholash jarayonlari bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Aksincha, oilaviy hayotda ayrim kelishmovchiliklar yoki kundalik muammolar mavjud bo‘lsa-da, o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik, ochiq muloqot, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va nizolarni konstruktiv boshqarish kabi omillarning mavjudligi munosabatlarning ayol tomonidan ijobiyroq baholanishiga imkon berishi mumkin. Bunda muhim jihat shundaki, ayol oiladagi mavjud vaziyatni o‘zining ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari bilan solishtiradi hamda mazkur munosabatlarga nisbatan subyektiv xulosa shakllantiradi. Shuning uchun oilaviy qoniqish obyektiv oilaviy sharoitlarning oddiy natijasi emas, balki shaxsning ushbu sharoitlarni idrok etishi, talqin qilishi va baholashi jarayonida yuzaga keladigan murakkab psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli oilaviy qoniqishni real oilaviy munosabatlarning o‘zi bilan cheklab qo‘ymasdan, ushbu munosabatlarning ayolning ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari bilan nisbati hamda ular tomonidan qanday idrok etilib, kognitiv va emotsional jihatdan baholanishi bilan bog‘liq subyektiv psixologik holat sifatida qarash mumkin. Bunday yondashuv oilaviy qoniqishning shakllanishida tashqi ijtimoiy-madaniy muhit, real oilaviy munosabatlar, shaxsning ehtiyoj va qadriyatlari hamda kognitiv baholash jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yaxlit holda tahlil qilish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini belgilovchi psixologik determinantlarni aniqlash oilaviy munosabatlarning ichki mexanizmlarini chuqurroq tushunish, ayollarning psixologik farovonligini ta’minlash hamda oilada sog‘lom va barqaror munosabatlarni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlarini belgilash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada oilaviy qoniqish tushunchasi va uning asosiy psixologik determinantlari deterministik, tizimli hamda kognitiv yondashuvlar doirasida nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi – ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini shakllantiruvchi psixologik determinantlarni aniqlash, ularning mazmuni va o‘zaro

bog‘liqligini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda kognitiv baholashning oilaviy qoniqishdagi o‘rnini asoslash.

Adabiyotlar sharhi. Ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishi ko‘plab o‘zaro bog‘liq psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadigan murakkab hodisa hisoblanadi. Ushbu qoniqishning yuzaga kelishi va vaqt davomida o‘zgarishini tushuntirishda alohida omillarni sanab o‘tish bilan birga, ularning shaxs psixologiyasi, oilaviy munosabatlar tizimi va ijtimoiy-madaniy muhit bilan qanday bog‘lanishini hisobga olish zarur. Shu jihatdan oilaviy qoniqishni belgilovchi omillarni oddiy sabablar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi psixologik determinantlar tizimi sifatida tahlil qilish muhimdir.

Psixologiyada determinant tushunchasi hodisa yoki jarayonning shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi shartlar, omillar hamda ichki va tashqi ta’sirlarning tizimini ifodalash uchun qo‘llanadi. Determinantlar inson xulq-atvori va psixik jarayonlarini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. S.L. Rubinshteynning psixologik determinizmga oid qarashlarida inson psixikasi tashqi ta’sirlarning oddiy va bevosita natijasi emas, balki shaxsning faoliyati, ichki shartlari va mavjud hayotiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanishi ta’kidlanadi [3]. Mazkur yondashuv oilaviy munosabatlardan qoniqishni ham faqat tashqi oilaviy sharoitlar yoki munosabatlarning obyektiv xususiyatlari bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tashqi ta’sirlarning shaxs tomonidan qanday qabul qilinishi va ichki psixologik xususiyatlar bilan qanday uyg‘unlashishi yakuniy baholashga ta’sir ko‘rsatadi.

B.F. Lomov psixik hodisalarni tizimli yondashuv asosida tahlil qilish zarurligini ilgari surib, inson psixikasining turli darajadagi omillar va munosabatlar tizimi bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratadi [4]. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan shaxsning psixologik holati bir-biridan ajralgan omillarning mexanik yig‘indisi emas, balki ularning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan yaxlit tizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv oilaviy qoniqishni ham bitta omil bilan emas, balki o‘zaro bog‘langan ijtimoiy, shaxsiy va munosabatga oid omillar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bunda oiladagi muloqot, emotsional yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va rollarning taqsimlanishi kabi munosabat omillari ayolning individual ehtiyojlari va qadriyatlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi.

R.M. Shamionov determinantlarni shaxs xulq-atvorining shakllanishi va amalga oshishini belgilovchi shartlar, omillar, old shartlar va xususiyatlar majmuasi sifatida izohlaydi. Muallif tashqi determinantlar qatorida ijtimoiy va guruhiy normalar, madaniyat qadriyatlarini, ichki determinantlar tarkibida esa qadriyatli yo‘nalishlar, ustanovkalar, motivlar va shaxsning psixologik xususiyatlarini ko‘rsatadi [5]. Mazkur tasnif ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘zbek oilalarida ayolning oilaviy munosabatlardan qoniqishi bir tomondan oila va jamiyatda shakllangan ijtimoiy normalar, gender rollari va madaniy qadriyatlarga, ikkinchi tomondan esa ayolning shaxsiy qadriyatlari, munosabatlarga bo‘lgan ustanovkalari,

motivlari va individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda tashqi va ichki determinantlar bir-biridan mustaqil emas, aksincha, o‘zaro ta’sirlashuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Oila psixologiyasiga oid mahalliy adabiyotlarda ham oilaviy munosabatlarning mazmuni oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, emotsional yaqinlik, muloqot, o‘zaro tushunish, ishonch va oilaviy rollarning bajarilishi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [6; 7]. Ushbu yondashuvlar oilaviy munosabatlarning tashqi shakli bilan bir qatorda ularning psixologik mazmunini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, oiladagi muloqotning ochiqligi, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi ayolning o‘zini oilada qadrlangan va tushunilgan shaxs sifatida his qilishiga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, ehtiyojlarning muntazam ravishda e’tibordan chetda qolishi, muloqotdagi uzilishlar yoki oilaviy rollarning nomutanosib taqsimlanishi qoniqish darajasining pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

R.J. Sternbergning sevgi uchburchagi nazariyasida yaqin munosabatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida intimlik, ehtiros va majburiyat ajratiladi [8]. Mazkur nazariya oilaviy munosabatlarda emotsional yaqinlik, o‘zaro bog‘liqlik va munosabatni saqlab qolishga bo‘lgan tayyorlikning ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi. Ayniqsa, intimlikning mavjudligi shaxsning o‘zini tushunilgan, qabul qilingan va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlangan deb his qilishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur komponentlarning muvozanati oilaviy munosabatlarning subyektiv baholanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Oilaviy qoniqishni tushuntirishda shaxsning ehtiyojlari va kutuvlari bilan real munosabatlar o‘rtasidagi muvofiqlik masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Ayolning oilaviy hayotdan kutayotgan emotsional, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlari real munosabatlarda qay darajada ta’minlanishi uning qoniqish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda qoniqish faqat “nima mavjud?” degan savol bilan emas, balki “mavjud holat mening kutuvlarim va qadriyatlarimga qanchalik mos?” degan subyektiv baholash bilan ham belgilanadi. Shu sababli bir xil oilaviy sharoitga ega bo‘lgan ikki ayol oilaviy munosabatlarni turlicha baholashi mumkin.

Mazkur jarayonda kognitiv baholash alohida psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ayol oiladagi mavjud munosabatlarni o‘zining avvalgi tajribasi, ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari bilan solishtiradi, ularning mazmunini talqin qiladi va shundan kelib chiqib, munosabatlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy baho shakllantiradi. Demak, real oilaviy munosabatlar bilan subyektiv qoniqish o‘rtasida bevosita emas, balki shaxsning idrok etishi va kognitiv baholashi orqali yuzaga keladigan psixologik bog‘liqlik mavjud.

Shunday qilib, mavjud nazariy qarashlarda oilaviy munosabatlar bir tomondan ijtimoiy-madaniy sharoit va oilaviy muhit bilan, ikkinchi tomondan shaxsning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari, motivlari va psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Biroq ushbu omillarning ayolning subyektiv qoniqishiga qanday

mexanizm orqali olib kelishi masalasi ularni yagona tizim doirasida izohlashni talab qiladi. Ayniqsa, tashqi oilaviy sharoitlarning shaxsiy ehtiyoj va kutuvlar bilan mosligi hamda ushbu moslikning subyektiv baholanishi oilaviy qoniqishning shakllanish mexanizmini tushuntirishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Mavjud nazariy qarashlarni birlashtirgan holda ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini faqat munosabatlarning obyektiv holati bilan izohlash to‘liq emas. Chunki bir xil oilaviy sharoit turli ayollar tomonidan turlicha idrok etilishi va baholanishi mumkin. Bunda ayolning ehtiyojlari, kutuvlari, qadriyatlari, oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari va mavjud vaziyatni qanday talqin qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy muhit tomonidan shakllantirilgan oilaviy qadriyatlar va me’yorlar ham ayolning “qoniqarli oilaviy munosabat” haqidagi mezonlariga ta’sir qilishi mumkin.

Shu sababli oilaviy qoniqishning psixologik determinantlarini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy muhit, real oilaviy munosabatlar, shaxsiy ehtiyoj va kutuvlar, qadriyatlar hamda ularning kognitiv baholanishini yagona tizimda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv oilaviy qoniqishni statik holat sifatida emas, balki tashqi sharoitlar, real munosabatlar va shaxsning ichki psixologik tizimi o‘rtasidagi doimiy o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadigan dinamik jarayon sifatida tushuntirish imkonini beradi. Mazkur nazariy asos keyingi tahlilda ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini belgilovchi asosiy determinantlarni tizimlashtirish va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni konseptual model shaklida ifodalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotda ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini shakllantiruvchi psixologik determinantlarni aniqlash uchun tizimli, deterministik va kognitiv yondashuvlar asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida ilmiy adabiyotlarda berilgan nazariy qarashlar, oilaviy munosabatlar psixologiyasiga oid konsepsiyalar hamda oilaviy qoniqishning psixologik omillariga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi.

A. Maslouning ehtiyojlar nazariyasida sevgi va tegishlilik, hurmat va e’tirof inson motivatsiyasining muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu nazariy qarashdan kelib chiqib, oilaviy munosabatlarda mehr, hurmat, tan olinishi, qadrlanishi, xavfsizlik, yaqinlik va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi ayolning munosabatlarga bergan bahosiga ta’sir qiluvchi omil sifatida qaraldi[9]. Aksincha insonning qondirilmagan ehtiyojlari destruksiyaga olib boruvchi asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilishi mumkin

S. Wazid tomonidan olib borilgan tadqiqotda ayollarning nikohdagi qoniqishi munosabatlarni qanday izohlash va baholashlari bilan bog‘liqligi o‘rganilgan [10]. Ushbu tadqiqotning mazkur maqola uchun ahamiyati shundaki, unda munosabatlarning o‘zi bilan bir qatorda shaxsning ushbu munosabatlarga bergan talqini ham oilaviy qoniqish bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi.

K. Michael va H. Ben-Zur tadqiqotida er-xotinlarning psixologik resurslari va oilaviy qoniqishi o‘rtasidagi munosabatda oilaviy qo‘llab-quvvatlashning vositachilik roli aniqlangan [11]. Bu yondashuv oilaviy munosabatlarning alohida komponentlari bir-biridan mustaqil emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi tizim sifatida qaralishi kerakligini ko‘rsatadi.

J.M. Gottman va L.J. Krokoff tadqiqotlarida oilaviy o‘zaro ta’sir jarayonlari va munosabatlardan qoniqish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan [12]. Mazkur tadqiqot oilaviy munosabatlarda kelishmovchilikning mavjudligi o‘z-o‘zidan qoniqmaslikni anglatmasligini, balki nizolarni qanday boshqarish va o‘zaro munosabatlarning xususiyati muhimligini ko‘rsatadi.

Oilaviy rollar va mas’uliyatlarning taqsimlanishi ham shu jarayonda muhimdir. Har bir oila a’zosining o‘z vazifasini bajarishi, mas’uliyatning bir tomonga haddan tashqari yuklanmasligi va vazifalarning kelishuv asosida taqsimlanishi oiladagi zo‘riqishni kamaytirishi mumkin. Aksincha, rollardagi nomutanosiblik ayol tomonidan munosabatlarning adolatsiz yoki qoniqarsiz deb baholanishi ehtimolini oshirishi mumkin.

Ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini o‘zbek oilasi sharoitida tahlil qilishda ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olish zarur. Oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik aloqalari, oilaviy rollar va ijtimoiy kutilmalar munosabatlarning mazmuni hamda ularning ayol tomonidan baholanishiga ta’sir qilishi mumkin. Oilaviy munosabatlardagi destruktiv jarayonlar ham munosabatlar barqarorligiga ta’sir qiluvchi jihatlardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi [13].

Mahalliy tadqiqotlarda oilaning mustahkamligi nikohga psixologik tayyorgarlik, oilaviy muhit, er-xotin munosabatlari va o‘zaro ta’sir xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan

Oila ichidagi qarindoshlik munosabatlari ham ayrim oilalarda ayolning tajribasiga ta’sir qilishi mumkin. Qaynona-kelin munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotda ushbu aloqalarning oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va barqarorlik bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [14]. Bu jihat o‘zbek oilasida ayolning qoniqishini faqat er-xotin munosabatlari bilan cheklamasdan, kengroq oilaviy muhit bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu nazariy va empirik manbalarni umumlashtirish asosida tadqiqotimizda oilaviy qoniqish real oilaviy munosabatlarning ayolning ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari bilan munosabati hamda ushbu munosabatlarning kognitiv baholanishi natijasida shakllanuvchi subyektiv psixologik holat sifatida qaraldi.

Demak, metodologik jihatdan asosiy e’tibor alohida determinantlarni sanab o‘tishga emas, balki ularning o‘zaro qanday bog‘lanishi va oilaviy qoniqishga qanday mexanizm orqali ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga qaratildi.

Natijalar va muhokama. Nazariy tahlil natijasida ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini tushuntirishga xizmat qiluvchi quyidagi interaktiv psixologik model taklif etildi:

IJTIMOIY-MADANIY MUHIT

↓

REAL OILAVIY MUNOSABATLAR

(sevgi, hurmat, tan olinishi, qadrlanishi, ishonch, emotsional yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, rollar va nizolarni boshqarish)

↓

EHTIYOJ - KUTUV – QADRIYATLAR

↓

KOGNITIV BAHOLASH

(idrok etish → taqqoslash → talqin qilish → baholash)

↓

OILAVIY MUNOSABATLARDAN QONIQISH

1-rasm. Ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini shakllantiruvchi psixologik determinantlarning interaktiv modeli

Taklif etilgan modelning birinchi bo'g'ini - ijtimoiy-madaniy muhit. Ayolning oilaviy munosabatlarga bo'lgan qarashlari jamiyatda mavjud qadriyatlar, oilaviy me'yorlar, genderga oid tasavvurlar, milliy-madaniy qarashlar va ijtimoiy kutuvlar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli oilaviy qoniqishni faqat oilaning ichki munosabatlari doirasida ko'rib chiqish yetarli emas. Ayolning oilaviy munosabatlarni qanday tushunishi va ulardan nimalarni kutishi u yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhit bilan ham bog'liq.

Modelning ikkinchi bo'g'ini - real oilaviy munosabatlar. Bu oilada amalda mavjud bo'lgan munosabatlar tizimini anglatadi. Unga sevgi, hurmat, tan olinishi, qadrlanishi, ishonch, emotsional yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, oilaviy rollarning taqsimlanishi va nizolarni boshqarish kiradi.Real oilaviy munosabatlarning sifati ayolning oilaviy tajribasini shakllantiradi. Biroq munosabatlarning mavjudligi hali qoniqishning o'zini anglatmaydi. Chunki ayol ushbu munosabatlarni o'zining individual mezonlari asosida baholaydi.

Shu sababli modelning keyingi bo'g'ini - ehtiyoj, kutuv va qadriyatlardir.

Ehtiyoj ayol uchun psixologik jihatdan zarur bo'lgan holatlarni ifodalaydi. Oilaviy munosabatlarda mehr, hurmat, xavfsizlik, yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, tan olinishi va qadrlanish kabi ehtiyojlar muhim o'rin tutishi mumkin.

Kutuv esa ayolning turmush o'rtog'i, oila a'zolari va oilaviy hayotdan kutayotgan munosabat va xatti-harakatlarini anglatadi. Kutuvlar real munosabatlarni baholashda shaxs uchun mezon vazifasini bajaradi.

Qadriyatlar esa ayol uchun muhim bo'lgan hayotiy va munosabatga oid mezonlarni ifodalaydi. Masalan, o'zaro hurmat, sadoqat, ishonch, oila birligi, emotsional yaqinlik yoki mustaqillik turli ayollar uchun turlicha ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Demak, bir xil oilaviy munosabat turli ayollar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Bu esa qoniqishning subyektiv xususiyatini ko'rsatadi.

Modeldagi keyingi va eng muhim bo'g'in - kognitiv baholash.

Bizning yondashuvimizda kognitiv baholash real oilaviy munosabatlar bilan ayolning shaxsiy mezonlari o‘rtasidagi bog‘lovchi psixologik mexanizm sifatida qaraladi. Bu jarayon quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

idrok etish → taqqoslash → talqin qilish → baholash.

Avvalo ayol oilada sodir bo‘layotgan munosabatlarni idrok etadi. Keyin mavjud munosabatlarni o‘zining ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari bilan taqqoslaydi. Keyingi bosqichda ushbu tajribaga muayyan ma’no berib, uni talqin qiladi. Nihoyat, munosabatlarni o‘zi uchun ijobiy yoki salbiy, qoniqarli yoki qoniqarsiz sifatida baholaydi. Shu jihatdan oilaviy qoniqish real munosabatlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ushbu munosabatlarning shaxsiy mezonlar asosida kognitiv qayta ishlanishi natijasidir. Masalan, oilada turmush o‘rtog‘ining moddiy ta’minoti yuqori bo‘lishi mumkin. Biroq ayol uchun emotsional yaqinlik va e’tibor muhim qadriyat bo‘lsa, u mazkur oilaviy munosabatlardan to‘liq qoniqmasligi mumkin. Aksincha, moddiy imkoniyatlari cheklangan oilada o‘zaro hurmat, ishonch, emotsional yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash yuqori bo‘lsa, ayol o‘z oilaviy munosabatlarini ijobiy baholashi mumkin.

Bu holat oilaviy qoniqishni tushuntirishda obyektiv sharoit va subyektiv baholashning birgalikda hisobga olinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kognitiv baholash jarayonida munosabatlarning sabablarini qanday talqin qilish ham muhim bo‘lishi mumkin. Ayol turmush o‘rtog‘ining ayrim xatti-harakatini befarqlik sifatida qabul qilishi yoki uni vaqtinchalik stress va tashqi sharoit bilan bog‘lashi mumkin. Bir xil vaziyatga berilgan turli talqinlar natijasida turli darajadagi emotsional javob va qoniqish yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, kognitiv baholash nafaqat taqqoslash, balki munosabatga ma’no berish va uni talqin qilish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.

Modelning yakuniy bo‘g‘ini - oilaviy munosabatlardan qoniqish.

Oilaviy qoniqish ayolning real oilaviy munosabatlar bilan o‘z ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari o‘rtasidagi moslikni qanday idrok etishi va baholashining natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun qoniqish darajasi faqat real munosabatlarning sifatiga emas, balki ushbu munosabatlarning ayol uchun qanday psixologik mazmun kasb etishiga ham bog‘liq.

Yuqoridagi taklif etilgan model determinantlarni alohida-alohida emas, yagona interaktiv tizim sifatida birlashtiradi. Ijtimoiy-madaniy muhit oilaviy munosabatlarning umumiy kontekstini yaratadi; real oilaviy munosabatlar konkret tajribani shakllantiradi; ehtiyoj, kutuv va qadriyatlar ayolning shaxsiy mezonlarini belgilaydi; kognitiv baholash esa real tajribaga psixologik mazmun beradi. Ushbu jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida oilaviy munosabatlardan qoniqish shakllanadi. Demak, oilaviy qoniqishning psixologik determinanti bitta alohida omil emas, balki tashqi va ichki omillarning o‘zaro ta’siri hamda ularning shaxs tomonidan kognitiv qayta ishlanishidan iborat murakkab tizimdir.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan nazariy tahlil natijalari ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini faqat oilada mavjud obyektiv sharoitlar yoki

munosabatlarning tashqi ko‘rinishi bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Oilaviy qoniqish murakkab va ko‘p omilli psixologik hodisa bo‘lib, uning shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhit, real oilaviy munosabatlar, ayolning ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlari hamda ushbu munosabatlarning kognitiv baholanishi o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etadi.

Tadqiqotning asosiy nazariy natijasi sifatida taklif etilgan interaktiv modelda ijtimoiy-madaniy muhit oilaviy munosabatlarning umumiy kontekstini yaratishi, real oilaviy munosabatlar esa ayolning kundalik tajribasini shakllantirishi asoslandi. Biroq ushbu munosabatlarning ayol tomonidan qanday qabul qilinishi uning ehtiyojlari, kutuvlari va qadriyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Mazkur shaxsiy mezonlar real munosabatlarni idrok etish, ular bilan taqqoslash, talqin qilish va baholash jarayonlari orqali oilaviy qoniqishning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, kognitiv baholash oilaviy munosabatlarning obyektiv xususiyatlari bilan ayolning subyektiv qoniqishi o‘rtasidagi muhim psixologik mexanizm sifatida qaralishi mumkin.Demak, oilaviy qoniqishni baholashda faqat “oilada qanday munosabat mavjud?” degan savol emas, balki “ayol ushbu munosabatni qanday qabul qiladi, nimaga asoslanib baholaydi va u uchun qanday mazmun kasb etadi?” degan savollar ham muhimdir.

Taklif etilgan modelning amaliy ahamiyati shundaki, kelgusidagi empirik tadqiqotlarda ayollarning oilaviy qoniqishini o‘rganishda munosabatlarning obyektiv ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ehtiyojlar, kutuvlar, qadriyatlar va kognitiv baholash jarayonlarini ham alohida o‘rganish imkonini beradi.

Oilaviy maslahat va psixologik yordam jarayonlarida ham muammoni faqat oiladagi mavjud vaziyatni o‘zgartirish orqali hal qilish bilan cheklanmasdan, ayolning vaziyatni qanday idrok etishi, undan qanday kutuvlarga ega ekani va mavjud munosabatlarni qanday talqin qilishi bilan ishlash maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda taklif etilgan modelning har bir tarkibiy qismi alohida psixodiagnostik ko‘rsatkichlar orqali o‘rganilishi, shuningdek, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar statistik usullar yordamida tekshirilishi mumkin.Umuman olganda, taklif etilgan model ayollarning oilaviy munosabatlardan qoniqishini tushuntirish uchun quyidagi izchillikni yagona nazariy tizimga birlashtiradi:

ijtimoiy-madaniy muhit → real oilaviy munosabatlar → ehtiyoj-kutuv-qadriyatlar → kognitiv baholash → oilaviy munosabatlardan qoniqish.

Mazkur yondashuv ayollarning oilaviy qoniqishini obyektiv munosabatlar va subyektiv psixologik baholashning o‘zaro ta’siri asosida tushuntirish imkonini beradi hamda o‘zbek oilalari sharoitida ushbu masalani empirik o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – 2026-yil 6-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – LexUZ:
3. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание: О месте психического во всеобщей взаимосвязи явлений материального мира. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1957. – 328 с.
4. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – Москва: Наука, 1984. – 444 с.
5. Шамионов Р.М. Психология социального поведения личности: учебное пособие. – Саратов: Издательский центр «Наука», 2009. – 186 с.
6. Shoumarov G‘.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A., Akramova F.A. va boshq. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. – 296 b.
7. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent, 2007. – 107 b.
8. Sternberg R.J. A Triangular Theory of Love // Psychological Review. – 1986. – Vol. 93, No. 2. – P. 119–135.
9. Maslow A.H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50, No. 4. – P. 370–396.
10. Wazid S. What makes women happy in marriage: an examination of adaptive relationship attribution, marital satisfaction, and well-being in India using PLS-SEM // Asia Pacific Journal of Counselling and Psychotherapy. – 2023. – Vol. 14, No. 2. – P. 161–175.
11. Michael K., Ben-Zur H. Couples’ Psychological Resources and Marital Satisfaction: The Mediating Role of Marital Support // Europe’s Journal of Psychology. – 2024. – Vol. 20, No. 4. – P. 303–316.
12. Gottman J.M., Krokoff L.J. Marital Interaction and Satisfaction: A Longitudinal View // Journal of Consulting and Clinical Psychology. – 1989. – Vol. 57, No. 1. – P. 47–52.
13. Sharafutdinova X.G. Oilaviy munosabatlarda destruksiya muammosi // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – 2020. – № 8. – B. 138–148.
14. Eshmurodov O.E., Fazliddinova U. Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligini ta’minlashda qaynona va kelin munosabatlarining o‘rni // Pedagogika va psixologiya zamonaviy ta’limda. – 2023. – B. 271-275.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694